

Surxondaryo viloyatida madaniyat va san'at muassasalari faoliyati


2024- yil uchun

- I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar
- II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar
- III. Konsert tashkilotlari
- IV. Havonot bog'i
- V. Madaniyat va istirohat bog'lari
- VI. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda faoliyat yuritayotgan muzeylar soni **2 tani** tashkil etgan. 2020-yilga nisbatan nisbatan o'zgarishsiz qolgan.

Faoliyat yuritayotgan muzeylar soni (*birlikda*)



2024-yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilarning jami soni **52,3 ming** tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilar tarkibida umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalarining ulushi **14,7 % ni** tashkil etgan. Jami tashrif buyuruvchilarning **100,0 % ni** Termiz shahri (**52,3 ming kishi**) xissalariga to'g'ri keldi.

* O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ma'lumotlari.



**Muzeylar soni va tashrif buyuruvchilarning tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil)**


	Muzeylar soni, jami (birlikda)	Tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
Surxondaryo viloyati	2	52,3
<i>shu jumladan shahar</i>		
Termiz	2	52,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	-	-
Angor	-	-
Bandixon	-	-
Boysun	-	-
Muzrabot	-	-
Denov	-	-
Jarqo'rg'on	-	-
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	-	-
Sariosiyo	-	-
Termiz	-	-
Uzun	-	-
Sherobod	-	-
Sho'rchi	-	-

**Muzeylardagi asosiy fond va eksponatlari soni
2024-yil uchun (ming birlikda)**

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud saqlanmoqda, 2024-yilda muzeylardagi jami asosiy fond va eksponatlar soni **178,0 ming tani** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,1 mingta (0,1 %)ga** ortgan.


Muzey eksponatlarining **0,3 mingtasi** rassomlik, **0,1 mingtasi** grafika, **0,01 mingtasi** haykaltaroshlik, **0,01 mingtasi** amaliy san'at, **33,2 mingtasi** numizmatika, **84,6 mingtasi** arxeologiya, **3,8 mingtasi** maishiy va etnografiya, **16,3 mingtasi** suratlar, **9,8 mingtasi** hujjalalar va **30,1 mingtasi** boshqa eksponatlardan iborat.

**Muzeylardagi asosiy fond eksponatlarning turlari bo'yicha soni
(ming birlikda)**



II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar


2024-yilda viloyatimizda jami teatrlar soni **2 tani** tashkil etib, ularda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **509 taga** etgan. Ushbu spektakllarga **173,0 ming** nafar tomoshabinlar tashrif buyurgan.



III. Konsert tashkilotlar

Viloyatimizda 2024-yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **4 ta** bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **2 ta (100,0 %)**ga oshgan. Konsert tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni **145 tani** tashkil etgan. Ushbu konsertlardagi tinglovchilar soni **406,3 ming** nafarga etgan.

Faoliyat yuritayotgan konsert tashkilotlari hamda o'tkazilgan konsertlar soni (*birlikda*)




IV. Hayvonot bog'i

Viloyatimizda birgina Termiz shahrida hayvonot bog'i o'z faoliyatini olib boradi. 2024-yilda hayvonot bog'ida **213 ta** ekskursiyalar va **56 ta** ma'ruzalar bo'lib o'tgan. Joriy yilda hayvonot bog'iga **59,9 ming** kishi tashrif buyurigan.

Hayvonot dunyosi namunalari (turlari) soni **127 ta**, shu jumladan, nusxalari soni **917 tani**, shuningdek, o'simlik dunyosi turlari soni **55 tani** tashkil etadi.

Hayvonot bog'iga yillar kesimida qatnovlar soni, (ming kishi)





V. Madaniyat va istirohat bog'lari

Surxondaryo viloyatimizda 2024-yilda **13 ta** madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ularning nisbatan eng ko'pi Termiz shahrida va Denov tumanida (**2 tadan**) mavjud ekanligini ko'rsatdi. Nisbatan past ko'rsatkich Oltinsoy, Angor, Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Uzun, Sherobod va Sho'rchi tumanlarida (**1 tadan**) to'g'ri kelgan.

Viloyat miqyosida madaniyat va istirohat bog'larining umumiyligi maydoni **49,3** gektarni tashkil qilib, ushbu bog'larga 2024-yil davomida qatnovlar soni **281,1 ming** kishiga tashrif buyurgan, shundan **189,0 ming (67,2 %)** nafari bolalar. Shuningdek, mazkur bog'larda **162 ta** attraksionlar mavjud.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni (2024-yil uchun)

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni, jami (birlikda)	Attraksionlar soni (birlikda)	Jami tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
Surxondaryo viloyati	13	162	281,1
<i>shu jumladan shahar</i>			
Termiz	2	60	94,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1	-	-
Angor	1	2	1,5
Bandixon	-	-	-
Boysun	1	3	6,2
Muzrabot	-	-	-
Denov	2	32	15,5
Jarqo'rg'on	1	15	16,7
Qumqo'rg'on	1	6	0,5
Qiziriq	-	-	-
Sariosiyo	1	11	100,0
Termiz	-	-	-
Uzun	1	20	6,5
Sherobod	1	6	-
Sho'rchi	1	7	39,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan botanika va hayvonot bog'lari soni.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni.

VI. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Madaniyat — inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obektlari.

konsyert tashkiloti - konsyert faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi (filarmoniya, gastrol-konsyert, konsyert zali) yoki mustaqil jamoani (musiqiy, xor, raqs va boshqalar) tashkil etish bilan shug'ullanadigan madaniyat tashkiloti;

muzyey - muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi;

muzey fondi - muzeyda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kollyeksiyalari majmui;

kinoteatrlar - bu boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan statsionar kinoqurilmalar bilan jihozlangan maxsus bino;

foydanuvchilar soni - obunachilar yoki kitobxonlar soni bo'yicha amalga oshiriladi. Yil davomida kitob olgan kitobxonlarning umumiyligi soni yil oxiridagi obunachilar tartib raqami bilan belgilanadi;

Foydali havolalar:

[Madaniyat statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

["Rivojanish uchun madaniyat" YUNESKO indikatorlari](#)

[Madaniyat statistikasitizimi YUNESKO 2009](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Aholi turmush darajasi va
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*

Manzil: 190108, Termiz sh.,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
El. manzil: info@surstat.uz
Tel.: (55) 541-80-00, ichki: 76-00

